



LUQMON BO‘RIXON ASARLARIDA AN‘ANAVIYLIK VA NOVATORLIK

Mahmatqulova Shukrona,
ToshDO‘TAU talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207463>

Anotatsiya: Mazkur maqolada el ardoqlagan adib Luqmon Bo‘rixon asarlari asosida obrazlarining pafosi va o‘ziga xos xususiyatlari va davr tamoyillari asosida shakllangan jamiyatning ko‘rinishlari ochib beriladi. Qahramonlar tasviri va taqdiri va qiyinchiliklari va qahramonlarning tuyg‘u kechinmalari va farzand va ota munosabatining muhurligi va qadr qimmatining tasvirlariga e‘tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: polvonlik, meros, yosh avlod, Davron, milliy, madaniy.

Kirish. Luqmon Bo‘rixon o‘zbek adabiyotida nasr yo‘nalishida ijod qilgan o‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat hodimi. Daslabki hikoyasi 1987-yil “Begimqul katta” nomli hikoya chop ettirgan. Ushbu maqolada biz adibning “Quyosh hali botmagan” qissasi qahramonlar tasviri va ularning o‘ziga xos xususiyatlari asardagi tabiat peyzajlari haqida so‘z yurutamiz. Asar saksoninchi to‘qsoninchi yillar voqealari tasvirlanadi Bu voqealar uzoq Kengansoy qishlog‘ida bo‘lib o‘tadi. Asar qahramonlari Norsoat va uning oilasi, Usta Abil va Uldon chechanning asrandi farzandi Tanzila hamda Quvundiq kolxoz raisining og‘li Davronlarning oilasi qalamga olinadi. Ularning taqdirlari zanjir misoli bir biriga bog‘lanib tasvirlanadi. Adib mohir qalam tebratib shu zanjirni uch qahramonning taqdiriga ulaydi va shu bilan bir qatorda insoniylik, do‘stlik, muhabbat, jasorat, qahr, va bahodirlik salobati milliylikning yana bir ko‘rinishi bo‘lgan- kurash orqali asar qahramonlarining xarakterini ochib beradi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyoti qolaversa, azal azaldan asarlarda yetakchi mavzu muhabbat mavzusi bo‘lib kelgan va bugungi kunga qadar bu mavzu hamon asarlarimizda yashab kelmoqda. Ushbu obrazlar orqali bizga qadimdan ma‘lum bo‘lgan inson yaratilishidan Odam ato va Momo Havoning farzandlari Qobil va Hobil aka- ukalar mana shunday sabab tufayli bir birini qurbon qilishidan boshlangan nuqta deb belgilasak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki bu motivlar orqali insonlarda rashk, alam, sevgi sog‘inch, iztirob, yaxshilik, mehr oqibat kabi tuyg‘ular hamon mavjud va inson ular bilan tirikdir. Asarda yana bir jihati - kurash polvonlik kurashi bu esa xalqning udumlari, ananalari va qadimdan o‘ziga xos xususiyatlari va belgisidan dalolatdir. Yosh avlodni shunday ruhda tarbiyalashga va ularda jasorat

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



adolat urug‘larini sepib yangi nihollar parvarishlab yosh avlodni komillik, insoniylik ruhida tarbiyalashga qaratilgan asar desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu mavzular xalq og‘zaki ijodi namunalarida ham o‘z aksini topgan.

Qolaversa, biz ota va og‘il munosabatini ham alohida ta’kidlab o‘tishimiz zarur. Asarda Quvundiq raisning tasviri va Davroning salobati, tashqi ko‘rinishi, xatti harakatlari ota va og‘il qahramonlarning ko‘rinishi bir birini to‘ldirib turadi. “O‘zida qandaydir ko‘rinmas salobatni ko‘tarib yurar, yurganda doim boshi tik , xushsurat gavdalari va yelkalari keng u qandaydir o‘zida kuchni va jasoratni olib yuradi. Biz kengansoy burgutlarini Davroning salobatiyu shashti barchamizni bosardi”, -deya ta’riflangan. Bundan ko‘rinib turubtiki, rais va uning obro‘ e’tibori yuksak ekanligini va jamiyatning unga bo‘lgan munosabatini va o‘rnini ko‘rsatadi. Qolaversa, Quvundiq rais asarning boshqa qahramonlarni ham o‘z tevarak atrofdagi insonlarni ham qo‘llab quvvatlagan insoniylik tuyg‘usini yuqotmagan deb tasvirlanadi. Ammo og‘li Davronda biroz bo‘lsada manmanlik ko‘rinar edi. Chunki asarning boshdan to oxirigacha faqat, bir muhabbat mavzusidan tashqari tole faqatgina Davronga kuldi. So‘nggi daqiqalarda uning do‘stini kechirishi va bor chekkan dard iztirobi shu bir onda baham topadi. Pisixologik jihatdan olib qaraganda unda o‘z salbiy hislariga nisabatan qarshilik ya’ni jasorat aks etganini ko‘rishimiz mumkin. Bu bilan inson hamisha kechirimli bo‘lishi va nasib qilingan narsa albatta unga kelishini anglaymiz. Yana bir narsaning ifodasi - Kurash, boks umuman olganda jamiyatda ular hali hamon o‘z o‘rnini yuqotmagan va biz hozirgi zamonda shular orqali ma’lum bir muvaffaqiyatlarga erishib kelmoqdamiz. Demak, bu bizda avvaldanoq ma’lum bo‘lgan ya’ni ota bobolarimiz orqali qon qonimizga singib kelgan bu esa yoshlarga bir xazina sifatida bir mustahkam muvozanatni saqlab kelmoqda. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak avlodlar o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini otab kelmoqda. Chunki tarixiy genzalarimizga qaraganda bizning madaniyatlarimiz, tariximiz va urf odatlarimiz aynan shu ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Ushbu yorqin namunalarni biz adabiyotimizda ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek adabiyotida shunday asarlar talaygina. Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” asari bunga yaqqol misol qilib olishimiz mumkin. Davrondagi ba’zi bir xislatlarni Bo‘ripolvonda ham uchratishimiz mumkin. Qolaversa, asarda Davron juda ko‘p yutuqlarga erishgan do‘stlar orasida obro‘ e’tibori baland, har bir gapida turfa xil ma’nolar bor, unda ko‘rinmas g‘ayrioddiy kuch mavjud bo‘lsa Bo‘ripolvonda or - nomus yigitlik g‘ayrati ham jo‘shib turadi. Bo‘ri qiziqqon va tez jahli chiqib jig‘ibiyron bo‘ladigan bo‘lsa, Davronda ham tez arazlaydigan, jahli tez inson sifatida gavdalanadi. Ikkovi

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



ham kurashda tengi yo‘q qahramonlar sifatida asarda gavdalanadi. Ammo shunday bo‘lishiga qaramay, Davron ham aqlan ham jismonan yetuk qahramondir. Davron asar davomida Tanzilaga bir yutuq sifatida qarab kelgan desak ham bo‘ladi. Chunki u har doim istagan narsasiga o‘z kuchi va g‘ayrati irodasi bilan erishgan. Buni Norsoatning o‘zi ham ta’kidlaydi. Asar davomida Norsoatning bir so‘zli, odil, vijdonli odam sifatida tanib olamiz. U do‘stiga doimo sadoqatini saqlashga urunadi garchi, Davron undan ranjigan bo‘lsada u hayotida to‘g‘ri yo‘l tutganiga guvoh bo‘ladi. Norsoatdagi bu harakatlar yoshlarni shunday shunday odil, jasoratli mard insoniylik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Sevgisiga sadoqat esa uning uchun kurashishi va jo‘mardligi jamiyatimizda shunday insonlarning bor bo‘lishi va ularning siymolari Norsoat orqali amalga oshirilgan desak ham bo‘ladi Adib ayollar obraziga ham alohida e‘tibor berib ularni jozibali va asl sifatlar bilan boyitgan. Asosiy asar qahramonlaridan biri Tanzila ham mavjud. U ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Qizlardagi nafosat, g‘urur tuyg‘ularining hammasi Tanzilada mujassam edi. Yana shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, u aqliga emas, balki qalbiga quloq tutib ish qiladi. Xo‘sh unda qay biri tog‘ri? Tanzila husniga malohatiga ishondi desak mutloqo to‘g‘ri emas!! Chunki u eng boshdayoq o‘zi uchun to‘g‘ri qarorni qabul qildi. Asosiy personajlarning bunday gavdalanishi insonlarda mustaqil fikrlarning shakllanishi ichki holati va o‘z “men”iga quloq solishi deb belgilaymiz. Tanzilada aks etgan tuyg‘ular esa qizlardagi jasorat, muhabbat hislarining aksidir. Garchi hayoti bir tekis ketmagan bo‘lsada undagi sabr, bardosh matonat va iroda insonlarni mana shunday bo‘lishga da’vat etadi.

Xulosa. Xalqimizning milliy, ma’daniy, qolaversa, ruhiy salohiyatini biz ular orqali ya’ni ularning siymosida ko‘rishimiz mumkin. Sovet davri va hozirgi zamonaviy adabiyotimizning ayana shu mavzudagi asarlarini solishtirsak ularning orasidagi anchagina ko‘p tavofutlarni ko‘rishimiz mumkin. Sovet davridagi yaratilgan asarlarda o‘sha davr muhiti va muamolar sujetlar orqali tasvirlanadi. Masalan, Tog‘ay Murod ning “Yulduzlar mangu yonadi” asarida Bo‘ripolvon kubikni “samovar” deb atashi bunga yaqqol misol bo‘loladi. Bu asarda esa Davron jahon va Osiyo chempiyoni bo‘lib bir necha sovrindorlar egasi bo‘lib qaytadi. Zamon rivojlangan sayin asarlar ham turli xil bo‘yoqlar bilan bo‘yaladi. Bu esa yangi g‘oyalar va ikki davrdagi tavofutlarni solishtirishga imkon yaratadi. Yangi g‘oyalar va kontekslar asosida ularda ham zamonaviy ham milliy uyg‘unligimiz aks etishini ko‘rishimiz mumkin

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Luqmon Bo‘rixon. Quyosh hali botmagan. – yoshlar nashriyot uyi Toshkent 2018.
2. Ziyozizlagan qalblar uchun uz. n.ziyouz.com.
3. Tog‘ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot uyi 1980.

